



CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib



Yirik korxonalar




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari

Dastlabki ma'lumotlar


Namangan viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 5 577,2 mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,1 % ga ko'paydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 559,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 97,5 %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi 5 017,5 mlrd. so'mni (0,4 % ga ko'paydi.), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 457,8mlrd. so'mni (63,0 % ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd.so'm


UMUMIY MA'LUMOT

Namangan viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **5 577,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,1** % ni tashkil etdi.

Namangan viloyati chakana savdo tovar aylanmasida barcha viloyatlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **90,0%** va yirik korxonalar hissasiga **10,0** % to'g'ri keldi.



YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to`g`ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko`ra 5 017,5 mlrd. so`mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan 0,4 % ga ko`paygan. Jami chakana savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa 90,0 % ni tashkil etdi.


Bu ko`rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Kosonsoy (99,2 %), Mingbuloq (98,3 %), Yangiqo`rg`on (97,2 %), Namangan (96,8 %), Norin (95,1 %), va Uchqo`rg`on (93,8 %) tumanlarida yuqori bo`lgan.





2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan viloyatning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining ko'payish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Uychi (118,6 %), Chust (110,4 %) va Namangan (103,2 %) tumanlarida qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'sish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	5 577,2	100,1	559,7	97,5	5 017,5	100,4
Namangan.sh	2 437,3	100,0	176,5	83,5	2 260,8	101,6
tumanlar:						
Mingbuloq	129,2	100,9	2,1	5,7 m.	127,1	99,6
Kosonsoy	358,1	101,7	3,0	3,6 m.	355,1	101,1
Namangan	184,6	103,2	6,0	2,4 m.	178,7	101,2
Norin	348,7	99,8	17,0	158,6	331,7	97,9
Pop	400,7	99,7	23,1	56,2	377,6	104,7
To'raqo'rg'on	293,8	93,4	16,8	46,0	276,9	99,6
Uychi	218,1	118,6	41,3	5 8,9 m.	176,8	96,5
Uchqo'rg'on	230,1	82,8	14,3	22,7	215,8	100,5
Chortoq	234,4	94,7	40,2	87,5	194,1	96,4
Chust	465,9	110,4	211,7	134,7	254,2	96,0
Yangiqo'rg'on	276,2	98,5	7,7	2,0 m.	268,5	97,1

Yirik korxonalar

Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda





Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,4 %** ga ko'paygan va **559,7** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,0 %** ulushiga to'g'ri keladi.



Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari


Eng yuqori ulushga
ega hududlar, foizda




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5 017,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,4 %** ga ko'paygan viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **90,0 %** ni tashkil etdi.



**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK
BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING
HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kosonsoy (99,2 %), Mingbuloq (98,3 %), Yangiqo`rg`on (97,2 %), Namangan (96,8%), Norin (95,1 %) tumanlari va Namangan sh (92,8 %) yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 10,0 % ni tashkil etib, eng katta ulush Chust (45,4 %), Uychi (18,9 %) va Chortoq (17,2 %) tumanlarida kuzatildi.



NAMANGAN VILOYATI BO'YICHA AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

2020-yil yanvar-iyun oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **1 975,8** ming so'm (2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **2,0** % ga kamaydi) va Norin (97,9%) Namangan shahri (97,7 %), Yangiqo'rg'on (96,5 %), Chortoq (92,9 %), To'raqo'rg'on (91,4 %), Yangiqo'rg'on (81,3 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Namangan shahri (3 872,4 ming so'm), Norin (2127,6 ming so'm) va Pop (1823,0 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.




	Hajm, ming so'm	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, % da
Namangan viloyati	1 975,8	98,0
Namangan.sh	3 872,4	97,7
tumanlar:		
Mingbuloq	1 023,3	98,9
Kosonsoy	1 710,0	99,5
Namangan	1 029,2	100,9
Norin	2 127,6	97,9
Pop	1 823,0	98,0
To'raqo'rg'on	1 297,5	91,4
Uychi	1 023,0	116,1
Uchqo'rg'on	1 337,1	81,3
Chortoq	1 177,1	92,9
Chust	1 753,4	108,3
Yangiqo'rg'on	1 266,6	96,5

**UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O‘SISH SUR‘ATLARI**

2020-yilning yanvar-iyun oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi **1,4 %** ni tashkil etib, **70,8 mlrd. so‘mga** yetdi va 2019-yil yanvar-may oylariga nisbatan **12,4 %** ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining **91,0 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasining
o‘shish sur‘atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so‘m	2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	70,8	87,6	6,4	69,4	64,4	89,9
Namangan.sh	43,1	90,2	6,1	74,8	37	93,3
tumanlar:						
Mingbuloq	1,6	86,7	-	-	1,6	86,7
Kosonsoy	1,8	88,6	-	-	1,8	88,6
Namangan	3,5	84,5	0,2	89,6	3,3	84,2
Norin	1,6	80,5	-	-	1,6	80,5
Pop	4	86,5	-	-	4	86,5
To‘raqo‘rg‘on	2,5	87,8	-	-	2,5	87,8
Uychi	1,1	77,7	0	165,0	1,1	75,9
Uchqo‘rg‘on	2,5	82,6	-	-	2,5	82,6
Chortoq	1,9	80,2	-	-	1,9	80,2
Chust	6,3	83,1	0	4	6,3	92,3
Yangiqo‘rg‘on	0,9	75,0	-	-	0,9	75,0

ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda




Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar

Namangan viloyati bo'yicha 2020-yilning yanvar-iyun oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 484,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga 10,3% ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarining savdo tovar aylanmasi **413,0** mlrd. so'mni (**71,2** % ga kamaydi), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **1 071,6** mlrd. so'mni (**0,4** % ga kamaydi).


O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Yirik korxonalar

Mikrofirma va kichik korxonalar

Savdo aylanmasi hajmi va ulushi



Eng yuqori ulushga ega hududlar






Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Norin (4 481,4 m.), Uchqo'rg'on (244,4 m.), Mingbuloq (150,5 %) tumanlarida kuzatildi.


Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Uchqo'rg'on (353,5 %), Uychi (209,8 %) va Norin (128,5 %), viloyatlarida qayd etildi.

Ulgurji savdo aylanmasi o'sish sur'atlari, foizda




	Jami, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019-yil yanvar- iyun oylariga nisbatan, foizda
Namangan viloyati	1 484,6	89,7	413,0	71,2	1 071,6	99,6
Namangan.sh	540,7	76,4	131,6	43,7	409,0	100,6
tumanlar:						
Mingbuloq	17,2	99,1	0,2	150,5	16,9	98,6
Kosonsoy	159,0	99,7	0,1	93,2	158,9	99,7
Namangan	59,0	98,6	0,6	163,1	58,3	98,2
Norin	85,9	128,5	20,4	4481,4 m.	65,6	98,0
Pop	70,3	100,6	0,3	113,9	70,0	100,6
To'raqo'rg'on	116,8	36,7	46,8	19,0	70,0	98,5
Uychi	61,3	2,1 m.	32,6	942,4 m.	28,7	98,2
Uchqo'rg'on	51,4	3,5 m.	37,0	224,4 m.	14,4	100,3
Chortoq	78,1	96,0	7,2	74,4	70,9	98,9
Chust	155,0	3,9 m.	136,1	6,6 m.	18,8	99,1
Yangiqo'rg'on	90,1	98,9	-	-	90,1	98,9

YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020-yil yanvar-iyun oylari yakuniga ko'ra, **1 071,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019-yil yanvar-iyun oylariga nisbatan **0,4** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanamasidagi ulushi esa **72,2** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Yangiqo'rg'on (100,0 %), Kosonsoy (99,9 %), Pop (99,6 %), Namangan (98,9 %) va Mingbuloq (98,6 %) tumanlarida yuqori bo'lgan. Eng past ulush esa Chust (12,2 %) tumaniga to'g'ri keldi.



Tashqi iqtisodiy faoliyat va
savdo statistikasi
boshqarmasi

Тел : (69)-226-84-95